

**DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINI
TOIFALASH MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Achildiyev Abdug'ani Abdullajonovich

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi xuzuridagi
soliq qo'mitasi xodimi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada davlat fuqarolik xizmatchilarini toifalash mexanizmlari va ularni takomillashtirish haqida so'z boradi.*

Kalit sozlar. *Taraqqiyot, tendensiya, davlat xizmatlari, shaffoflik, lavozim, fuqaro, qaror, hujjat, jahon tajribasi.*

Abstract. *This article talks about the mechanisms of classification of state civil servants and their improvement.*

Key words. *Progress, trend, public services, transparency, position, citizen, decision, document, world experience.*

Аннотация. *В данной статье говорится о механизмах классификации государственных гражданских служащих и их совершенствовании.*

Ключевые слова. *Прогресс, тренд, государственные услуги, прозрачность, позиция, гражданин, решение, документ, мировой опыт.*

Jahon tajribasida davlat organlarida, davlat idoralarida bilimli, malakali, o'z ishining ustasi bo'lgan davlat xizmatchilarini xizmatda qolishini, ularni o'z xizmat vazifalarini sidqidildan bajarishini ta'minlash, davlat xizmatlarini ko'rsatishning eng yuqori pog'onaga chiqarish bilan bog'liq tendensiyalar amalga oshirilmoqda, zero davlatning funktsiya vazifalari qanday tartibda amalga oshirilishi davlat xizmatchilariga bog'liq. Davlat xizmatining bir turi bo'lgan davlat fuqarolik xizmatida rag'batlantirishda ham hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab islohatlar amalga oshirilmoqda.

Har bir mamlakat taraqqiyoti ma'lum bir ma'noda davlat xizmatining qay darajada yaxshi tashkil etilganligi, mamlakatda mehnat munosabatlari huquqlarining davlat darajasida kafolatlanishi, Davlat xizmatiga kirishda shaffoflikning darajasiga bog'liq. Ilg'or jahon tajribasidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki davlat fuqarolik xizmati mehnat munosabatlarining bir turi bo'lib, u davlat organlarining davlat xizmati lavozimlaridagi vakolatlarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi haq to'lanadigan kasbiy faoliyatdir.

Yurtimizda ham davlat xizmatini isloh qilishda bir qator samarali ishlar amalga oshirilib kelinmoqdaligi sir emas. Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019 yil 3-oktabrdagi PF-5843-sonli O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni qabul qilindi, mazkur farmon orqali davlat xizmatida tub burilishlar amalga oshirildi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Davlat fuqarolik xizmatini tartibga soluvchi yagona qonun hujjati yo'q. Vaholanki, ayni damda mazkur tizimda minglab fuqarolar mehnat qilmoqda. 2019-yil sarhisobiga ko'ra, O'zbekiston bo'yicha 320 nafar aholiga 1 nafar davlat xizmatchisi to'g'ri keladi. Ushbu

ko_rsatkich Janubiy Koreyada 28, Rossiya Federatsiyasida 68, Qozog_iston Respublikasida 187 nafarni tashkil qiladi.

Aynan davlat fuqarolik ximatidagi faoliyatni yagona qonun hujjati bilan tartibga solish orqali bu sohadagi dolzarb masalalarga yechim topish maqsadida agentlik tomonidan tizimni tartibga soluvchi huquqiy asos, ya'ni "Davlat fuqarolik xizmati to_g_risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. U keng muhokamalarga sabab bo_lganini alohida ta'kidlaydigan bo_lsak, albatta, bu ijobiy jarayon. Chunki davlat fuqarolik xizmatining maqomi qanday bo_lishi bevosita jamiyat hayotiga ham ta'sir o_tkazadi. Shu sababli jamoatchilikning tizimda bo_layotgan jarayonlarga e'tibor qaratib, o_z fikrini bildirishi oldimizga qo_ygan ustuvor vazifalardan biri bo_lgan kuchli fuqarolik jamiyatini yaratish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning dastlabki mevasi, desak adashmagan bo_lamiz.

Qonun loyihasiga ko_ra, davlat xizmatchisi kasbga oid sifatleri va alohida xizmatlarini obyektiv va adolatli baholash asosida xizmat pog_onalari bo_yicha o_sish (meritokratiya), xizmat yuzasidan rahbariyatga o_zining shaxsiy fikrini bildirish, o_zi faoliyat yuritayotgan davlat organi yoki tashkiloti faoliyatini takomillashtirishga oid takliflarni berish, rahbarlar, boshqa mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan sha'ni va qadr-qimmatining hurmat qilinishi va boshqa huquqlarga ega bo_ladi. Mazkur qonun davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy maqomini belgilovchi, ularning ijtimoiy va huquqiy himoyasi masalalarini tartibga soluvchi hamda davlat fuqarolik xizmatini mustahkamlovchi muhim loyiha hisoblanadi. Qonun loyihasi bilan davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo_lgan korrupsiogen holatlarning oldini olinishi ko_zda tutilmoqda. Ayniqsa davlat fuqarolik xizmatchilarining belgilangan tartibda deklaratsiya to_ldirib borishi ushbu mexanizmlarda biridir.

Ushbu Farmonda davlatimiz rahbari davlat xizmatida mavjud bo_lgan muammolar shu bilan birga davlat fuqarolik xizmatini yanada takomillashtirish va isloh qilishning ustuvor yo_nalishlari aniq belgilab qo'yildi. Sohadagi muammolar sifatida quyidagilar belgilandi:

- davlat fuqarolik xizmatini, shu jumladan nomzodlarni ochiq mustaqil tanlov orqali saralab olish jarayonini kompleks huquqiy tartibga solishni ta'minlovchi, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchilarining ish samaradorligi va kompetensiyasini baholovchi mezonlarni, ularning malakasini oshirishga bo_lgan talablarni belgilovchi to_g_ridan to_g_ri ta'sir kuchiga ega qonun mavjud emasligi;

- davlat fuqarolik xizmati masalalari bo_yicha vakolatli organning mavjud emasligi davlat organlari va tashkilotlarida yagona kadrlar siyosatini olib borishga, xodimlarni samarali boshqarish va inson resurslarini rivojlantirishga, malakali kadrlar zaxirasini raqobat asosida shakllantirishga hamda ular tomonidan davlat fuqarolik xizmatchilarining vakant lavozimlari o_z vaqtida egallanishiga yo_l qo_ymayotgani;

- davlat fuqarolik xizmatiga kirishda barcha fuqarolarning teng imkoniyatlardan foydalanishini hamda davlat fuqarolik xizmatida professional sifatlar va alohida xizmatlar asosida ko_tarilib borishni ta'minlaydigan nomzodlarni saralab olishning shaffof mexanizmlari shakllantirilmaganligi;

- aholi, ayniqsa yoshlar orasida barcha darajalardagi davlat fuqarolik xizmati nufuzini oshirish, korrupsiyaning yuzaga kelishi, rasmiyatchilik va byurokreatiyaga imkon beruvchi

sharoitlarni yo_q qilish maqsadida davlat fuqarolik xizmatchilarini moddiy rag_batlantirish va ijtimoiy himoya qilishning munosib darajasini kafolatlash choralari joriy etilmaganligi sohadagi muammo sifatida ko_rsatildi.

O_zbekiston davlat fuqarolik xizmatida teng imkoniyatlar tamoyilini qo_llab- quvvatlagan holda, fuqarolar manfaatlariga xizmat qiladigan, mamlakatning har tomonlama rivojlanishi va taraqqiyotiga hissa qo_shadigan professional, hisobdor va samarali davlat boshqaruvini shakllantirishni maqsad qilgan. davlat fuqarolik xizmatiga fuqarolarning qabul qilinishi yoki mansablarni egallashi bir qator aniq mexanizmlar orqali amalga oshadigan jarayon hisoblanadi. Buning uchun talabgorlar muayyan huquqiy, tashkiliy hamda malakaviy talablarga javob berishi, o_ziga yuklatilgan xizmat vazifalarini mas_uliyat bilan bajarish layoqatiga ega bo_lishi lozim. Bugungi kunda ko_pgina mamlakatlarda davlat xizmatiga kirish uchun bir qancha talablar belgilangan bo_lib, ulardagi mohiyat bir biridan unchalik ham farq qilmaydi. Ya_ni, talabgor shaxs avvalo tegishli mamlakatning fuqarosi bo_lishi, o_n sakkiz yoshga to_lganligi, davlat tilini yaxshi bilishi, ma_lum darajada mehnat amaliyotiga egaligi, davlat fuqarolik xizmati to_g_risidagi qonunchilikda belgilangan boshqa talablarga javob berishi shart. Mana shu o_rinda davlat fuqarolik xizmatiga xorijiy davlatlar fuqarolari yoki fuqaroligi bo_lmagan shaxslarning ishga qabul qilinishi tartib-taomili qanday degan haqli savol tug_iladi. Qayd etish joizki, xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo_lmagan shaxslar O_zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida qarorlari bilan o_rnatilgan tartibda davlat fuqarolik xizmatchisi lavozimini egallashi mumkin bo_ladi. Fuqarolarning davlat xizmatiga qabul qilish jarayoni ham zamon talablari darajasida takomillashuvni talab etadi. Avvalo davlat xizmatiga kirishda fuqarolarning teng huquqliligi masalasi O_zbekiston Respublikasining yangi ayni paytda amaldagi Konstitutsiyasida alohida modda bilan mustahkamlab qo_yilishi bu sohada olib borilayotgan ishlarning ahamiyati dolzarbligini ko_rsatadi.

Hozirgi kunda O_zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligi direktorining 28.12.2022 yilda ro_yxatdan o_tgan, ro_yxat raqami 3407 sonli3 —Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatining samaradorligini eng muhim ko_rsatkichlar asosida baholash uslubiyatini tasdiqlash to_g_risida buyrug_Iga muvofiq Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatining samaradorligini eng muhim ko_rsatkichlar asosida baholash Uslubiyoti qabul qilindi, eng muhim samaradorlik ko_rsatkichlari— davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan funksional vazifa va majburiyatlari ijro etilishining samaradorligi va natijadorligini baholash uchun qo_llaniladigan va miqdoran o_lchash mumkin bo_lgan baholash indikatorlar ekanligi belgilab qo_yildi. Shuni alohida aytish joizki davlat xizmatida eng muhim samaradorlik ko_rsatkichlarini belgilashda bir qator kamchiliklar ham ko_zga tashlanib bormoqda. Chunonchi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining —Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari rahbarlari o‘rinbosarlarining funksional vazifalari hamda faoliyatining eng muhim samaradorlik ko_rsatkichlari to_g_risidagi namunaviy nizomlarni tasdiqlash haqidagi qarori4 bilan tasdiqlangan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vaziri, viloyatlar va Toshkent

shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari — iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bosh boshqarmalari boshliqlarining ish samaradorligini baholash ko'rsatgichlari soni 36 tani tashkil etsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qurilish, kommunikasiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosarlarining ish samaradorligini baholash ko'rsatgichlari 54 tani tashkil etadi. Ko'rinib turibdiki, davlat fuqarolik xizmatchilarini samaradorlik ko'rsatgichlarini soni juda katta. Bugungi kunda mazkur mezonlar asosida davlat fuqarolik xizmatchilar faoliyati baholanib kelinmoqda.

Davlat xizmatiga kirgan fuqaro xizmat shartnomasini tuzayotganda va davlat xizmati lavozimini egallaganda rasmiy nizomga muvofiq xizmat vazifalarini bajarishga va davlat organining rasmiy normativ hujjatlariga rioya qilishga majburdir. Aynan mehnat shartnomasini tuzish natijasida xodim va davlat organi o'rtasida davlat fuqarolik xizmati munosabatlari vujudga keladi va fuqaro alohida huquqiy maqomga ega bo'ladi. Davlat xizmatchisining kasbiy xizmat faoliyati ma'muriy reglamentning ajralmas qismi bo'lgan rasmiy normativ hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi O'RQ-788-son qonuni.
2. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.07.2021-y., 06/21/6256/0636-son
3. —O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son Farmoni.
4. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.08.2022-y., 03/22/788/0723-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son